

ALISHER NAVOIY ASARLARINING YOSHLARNI TA'LIM-TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI.*Muhammadiyev Nodir Rustamzoda**Samarqand shahar O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institut xodimi*

Annotatsiya: Alisher Navoiy ilm o'rganishga intilishni inson kamolotini ta'minlash uchun xizmat qiluvchi eng zarur fazilatlardan biri deb biladi. Ilmni insonni, xalqni nodonlikdan, jaholatdan qutqazuvchi omil sifatida ta'riflaydi. Asarlari mazmunida ilgari surilgan g'oyalar yordamida kishilarni ilmli va ma'rifatli bo'lishga undaydi. Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarining yoshlarning ta'limgarbiyasidagi o'rni haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Ta'limgarbiya, yoshlar, Alisher Navoiy, «Hayrat-ul-abror», «Nazm-ul-javohir», ilm-ma'rifat, asarlar, mustaqil fikrlash.

Аннотация: Алишер Навои считает стремление познавать науку одним из самых необходимых качеств, служащих обеспечению человеческого совершенствования. Он описывает науку как фактор, спасающий людей и людей от невежества. Он призывает людей быть знающими и просвещенными с помощью идей, выдвинутых в содержании его произведений. В данной статье представлена информация о роли произведений Алишера Навои в воспитании молодежи.

Ключевые слова: образование, молодежь, Алишер Навои, «Хайрат-уль-абор», «Назм-уль-джавахир», наука и просвещение, труды, самостоятельное мышление.

Abstract: Alisher Navoi considers the desire to learn science as one of the most necessary qualities that serve to ensure human perfection. He describes science as a factor that saves people and people from ignorance. He encourages people to be knowledgeable and enlightened with the help of the ideas put forward in the content of his works. This article provides information about the role of Alisher Navoi's works in the education of young people.

Key words: education, youth, Alisher Navoi, "Hayrat-ul-abror", "Nazm-ul-javahir", science and enlightenment, works, independent thinking.

Mutafakkir ilm o'rganishni har bir kishining insoniy burchi deya e'tirof etadi. Zero, ilm o'rganishdan maqsad ham xalqning farovon, baxtli-saodatli hayot kechirishini, mamlakatning obod bo'lishini ta'minlashga hissa qo'shishdir, deya ta'kidlaydi. Bilimli va dono kishilar hamisha o'z xalqining manfaati hamda mamlakatining ravnaqi yo'lida faoliyat olib borishlariga ishonadi.

Mazkur o'rinda Mirzo Ulug'bekni ana shunday xislatga ega bo'lgan kishilardan biri bo'lganligiga urg'u beradi hamda uning nomi tarix sahifalarida abadiy saqlanib qoladi, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy orzu qilgan komil inson faqat ilmlli bo'lish bilan qanoatlanib qolmaydi. Uni yetuk inson sifatida ta'riflash uchun unda, yana shuningdek, sabr-qanoat, saxiylik, himmat, to'g'rilik, rostgo'ylik, tavoze, adab, vafo va hokazo sifatlarning ham mavjud bo'lishi taqozo etiladi.

Alisher Navoiy asarlari mazmunida o'z aksini topgan har bir fikr amaliy ahamiyatga ega, zero, mutafakkir ularni o'zining ulkan hayotiy tajribasiga tayangan holda bayon etadi. Alloma uzoq yillar davomida olib borgan hayotiy kuzatishlari va tajribasi asosida «Mahbub-ul-qulub» («Ko'ngillarning sevgani») asarini yaratadi. Ushbu asarda «Xamsa» dostonining tarkibiy tuzilmasidan o'rin olgan «Hayrat-ul-abror», shuningdek, «Nazm-ul-javohir» kabi ta'limiy-axloqiy asarlarida ilgari surilgan axloqiy qarashlarni mazmun jihatidan yanada boyitadi.

Mutafakkir «Mahbub-ul-qulub» asarini yozishdan ko'zlagan asosiy maqsadini asar muqaddimasida quyidagi tarzda ochib bergan: «Har ko'cha-ko'yda yuguribman va olam ahlidin har xil kishilarga o'zimni yetkazibman. Yaxshi va yomonning fe'l-atvorini bilibman, yomon-yaxshi xislatlarini tajriba qilibman.

Bu hildagi hamsuhbat va do'stlarni xabardor qilmoq va bu hollardan ogohlantirmoq lozim ko'rindaniki, har toifaning xislatlaridan ma'lumotlari va har tabaqaning ahvoldin bilimlari bo'lsin, keyin munosib kishilar xizmatiga yugursinlar va nomunosib odamlar suhbatidan tortinishni zarur bilsinlar va barcha odamlar bilan maxfiy sirlardan so'z ochmasinlar. SHayton sifatlar hiyla va aldovlariga o'yinchoq bo'lib qolmasinlar. Kimki har xil kishilar bilan suhbatlashish va yaqinlashishni havas qilsa, bu borada kaminaning tajribasi yoshlar uchun yetarlidir". Alisher Navoiy ilm-fanning inson kamolotidagi o'rni, bilimlarni o'rganish asosida hosil bo'lgan aql va idrokning inson hayotidagi ahamiyati hamda aqliy tarbiya va uning mohiyatini yoritishga alohida e'tibor qaratadi. Alloma insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy xislatlari xususida so'z yuritadi hamda mazkur sifatlarning har biriga to'laqonli ta'rif berib o'tadi. Qanoat, sabr, tavoze (adab), o'zgalarga nisbatan mehr-muhabbatli bo'lish, ishqda vafodorlik, saxovat, himmat, karam, muruvvat, yumshoq ko'ngillik (hilm) kabi xislatlarni ijobiy fazilatlar sirasiga kiritadi va ularning har biriga ta'rif bergenidan so'ng tanbeh va hikoyatlar vositasida shaxsiy qarashlarini dalillar bilan to'ldiradi. Asarda, shuningdek, axloqiy fazilatlarning antonimi hisoblangan salbiy illatlar va ularidan qutulish yo'llari ham bayon etilgan.

Alisher Navoiy ilm-fanning inson kamolotidagi o'rni, bilimlarni o'rganish asosida hosil bo'lgan aql va idrokning inson hayotidagi ahamiyati hamda aqliy tarbiya va uning mohiyatini yoritishga alohida e'tibor qaratadi. Alloma insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy xislatlari xususida so'z yuritadi hamda mazkur sifatlarning har biriga to'laqonli ta'rif berib o'tadi. Qanoat, sabr, tavoze (adab), o'zgalarga nisbatan mehr-

muhabbatli bo'lish, ishqda vafodorlik, saxovat, himmat, karam, muruvvat, yumshoq ko'ngillik (hilm) kabi xislatlarni ijobjiy fazilatlar sirasiga kiritadi va ularning har biriga ta'rif bergenidan so'ng tanbeh va hikoyatlar vositasida shaxsiy qarashlarini dalillar bilan to'ldiradi. Asarda, shuningdek, axloqiy fazilatlarning antonimi hisoblangan salbiy illatlar va ulardan qutulish yo'llari ham bayon etilgan. Mutafakkir axloqlilikning eng muhim mezoni odob deb hisoblaydi. Odobli, axloqli bo'lish insonga atrofdagi kishilar o'rtasida muayyan mavqe hamda hurmatga sazovor bo'lishga yordam beradi. Odobga ega bo'lishning inson hayotidagi rolini ko'rsatib berar ekan, Alisher Navoiy shunday fikrlarni ifoda etadi: «Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod bahramand bo'ladi. Adab, kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi. Yoshlarni ko'zga ulug' ko'rsatadi. Ularning yurish-turishini xalq ulug'vor biladi. O'ziga qarshi xalq tomonidan bo'ladigan hurmatsizlik eshigini bog'laydi va kishini hazil-mazaxdan va kamsitilishidan saqlaydi. Kishi tabiatini insonlik yo'liga soladi va odam mijoziga odamgarchilik manzilida orom beradi. Kichiklarga undan muncha natija hosil bo'lgach, kattalarga allaqachon bo'lishini ko'rarsan. Adabdan muhabbatga bezak va pardoz yetadi, adab tarkidan do'stlikning ravnaq va bahosi ketadi. Adab va tavozu' do'stlik ko'zgusini yarqiratadi, ikki tomondan yorug'lik yetkazadi. Adabdan muhabbatga bezak va pardoz yetadi, adab tarkidan do'stlikning ravnaq va bahosi ketadi. Adab va tavozu' do'stlik ko'zgusini yarqiratadi, ikki tomondan yorug'lik yetkazadi.

Tazozu'li va adablilarga ta'zim va hurmat yetadi va u urug'ni ekkan bu qimmatbaho hosilni to'plab oladi. Xalq muomalasida yaxshi axloqning boshlang'ichi shu xislatlar va bu xislat qattiq o'mashsa, muhabbatga xalal yetishi maholdir. Agar har ikki tomonda yaxshi xulq bo'lsa, adabi va tavozu' evaziga ta'zim paydo bo'ladi». Demak, yaxshi xulqning asosi bo'lgan odob Alisher Navoiyning talqinida barcha insoniy xislatlarning bosh bo'g'ini sanaladi.

Qanoat, sabr, tavoze, ishq, vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, hilm (yumshoq ko'ngillik) kabi ijobjiy fazilatlarning odobli, axloqli kishilar qiyofasidagina namoyon bo'lishiga urg'u berib o'tadi. Mutafakkir insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy xislatlar xususidagi fikrlarini ularning har biriga to'laqonli ta'rif berish asosida davom ettiradi. Chunonchi, «qanoat – buloqdir – suvi olgan bilan qurimaydi. Xazinadir – naqdinasи sochilgani bilan kamaymaydir. Ekinzordir – urug'i izzat va shavkat mevasi beradir. Daraxtdir – shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasi yetkizadi.

Qanoat, sabr, tavoze, ishq, vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, hilm (yumshoq ko'ngillik) kabi ijobjiy fazilatlarning odobli, axloqli kishilar qiyofasidagina namoyon bo'lishiga urg'u berib o'tadi. Mutafakkir insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy xislatlar xususidagi fikrlarini ularning har biriga to'laqonli ta'rif berish asosida davom ettiradi. Chunonchi, «qanoat – buloqdir – suvi olgan bilan qurimaydi. Xazinadir

– naqdinasi sochilgani bilan kamaymaydir. Ekinzordir – urug’i izzat va shavkat mevasi beradir. Daraxtdir – shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasi yetkizadi.

Kimki, qanoatga odatlansa, shoh va gadoy bordi-keldisidan ozod bo’ladi qanoat qo’rg’ondir, u yerga kirsang nafs yomonligidan qutularsan, tog’liklardir – u yerga chiqsang dushman va do’stga qaramlikdan xalos bo’larsan; tubanlashishdir – natijasi yuksaklik; zoriqishlikdir – foydasi ehtiyyotkorlik urug’ining mevasi farovonlik».

U o’rtoqdir – suhbati zeriktirarli, ammo maqsadga olib boruvchi; u ulfatdir – umidi uzun, ammo oxiri istakka eltuvchi.

U o’rtoqdir – suhbati zeriktirarli, ammo maqsadga olib boruvchi; u ulfatdir – umidi uzun, ammo oxiri istakka eltuvchi.

Ulovdir – yurishi taxir, ammo manzilga yetkazuvchi; tuyadir – qadami og’ir, lekin bekatga tushirguvchi.

Achchiq so’zli nasihatchiday tabiat undan olinadi, lekin zaminida maqsad hosil bo’ladi. Badxo’r dori beruvchi tabibday kasal undan qiynaladi, ammo so’ngida sog’liq yuz beradi».

Navoiy insonning axloqiy xislatlari, yaxshi xulq-atvor xususida to’xtalib o’tar ekan, avvalo har bir insoniy fazilatning ta’rifini beradi.

U yaxshi fe’llarga qanoat, sabr, tavoze’ va adab, ishq va vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, yumshoq ko’ngillilik (hilm) kabi xislatlarni kiritib, har birining ta’rifidan so’ng tanbeh va hikoyatlar vositasida o’z fikrini to’ldiradi. Navoiy yuqorida zikr qilib o’tilgan xislatlarga ta’rif berish bilan birga ularga qarama-qarshi bo’lgan yomon illatlar to’g’risida so’z yuritadi va ulardan qutilish yo’llarini ham bayon qiladi. Alloma axloqlilikning eng muhim mezoni sanalgan odob haqida fikr yuritar ekan: «Adab kichik yoshdagilarni ulug’lar duosiga sazovor etadi va u duo barokati bilan umrbod bahramand bo’ladi. Adab kichkinalar mehrini ulug’lar ko’ngliga soladi va u muhabbat ko’ngilda abadiy qoladi». Alisher Navoiy asarlarida ilm odobi, jamiyat boshqaruv odobi, adolatli boshliq odobi masalalari yuqori o’rinda turgan. Ta’lim jarayonida Navoiy asarlaridan foydalanish natijasida talabalarda barcha ijobjiy axloqiy fazilatlar yuksaltirish mumkin.O`tmishdagi buyuk mutafakkirlarning dono fikrlari, o’gitlari, tafakkur mevalari, ijodiy yutuqlarini o’rganish xalqimizning ma’naviy dunyosini kengaytirish bilan bir qatorda, yosh avlodning barkamol inson bo`lib yetishishida muhim vositalardan biri sanaladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Sharq murafakkirlaridan biri, o`zbek adabiyotining zabardast siymosi, komil inson kuylovchisi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy merosini o’rganish, undan ta’limtarbiya jarayonida foydalanish har bir pedagogning vazifasi hisoblanadi. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs , milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g`ururi ,sha’n –u sharafini dunyoga tarannum qilgan o`lmas so`z sa`natkoridir. Ta`bir joiz bo`lsa , olamda turkey va forsiy tilde so`zlovchi biron bir inson yo`qki , u Navoiy

sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa , “Agar bu ulug` zotni avliyo desak , mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonı ”, I.A .Karimov Buyuk alloma, shoir Alisher Navoiy umuminsoniy tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan bo`lsa ham, o`zining bu haqidagi fikrlarini deyarli barcha ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan.

Alisher Navoiyning ilm-ma'rifat, ta'limtarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g`oyalari bosh o`rinda turadi. Uning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir. Alisher Navoiyning barcha asarlari yoshlardan tarbiyasi uchun muhim xazina hisoblanadi. U o`z asarlarida har bir so`zdan unumli va o`rinli foydalana olgan. Har bir hikmati biz uchun ibratlidir. Alisher Navoiyning hayoti va merosi yoshlarda umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalashda bizga har tomonlama namuna bo`ladi. Ulug` shoir o`zining ta'lim-tarbiyaga oid fikr-mulohazalari bilan barkamol avlod tarbiyasiga katta hissa qo`shdi, umuminsoniy fazilatlar to`g`risidagi fikrlari hozirgi davrimiz uchun ham muhimdir. Har bir o`qituvchi- pedagog faoliyat yuritar ekan, berayotgan ta'lim-tarbiyasining yanada samarali bo`lishi uchun o`z ustida muttasil ishlashi, bilimini, mahoratini o`stirishi, o`quvchilar bilan bo`ladigan munosabatlarni puxta o`ylab, ularning ko`ngliga ozor yetkazmasdan ish olib borishi lozim.

Muomala madaniyati, o`zini tuta bilishini nazorat qilishi kerak. Har bir tarbiyachining dunyoqarashi uning muomalasida namoyon bo`ladi. Muomalaning asosiy vositasi – tildir. Xalqimizda shunday naql bor “Bola – shirin so`zning gadosi”. Shunday ekan, tarbiyachi muomala jarayonida juda ehtiyyotkor bo`lishi maqsadga muvofiqdir. Alisher Navoiy muomala qiluvchi shaxsning mahorati haqida shunday deydi: “Shirin so`z ko`ngillar uchun bamisol asaldir”. Shuning uchun ham o`qituvchi har on nutq madaniyatiga qattiq e'tibor berishi, o`zining psixologik, estetik, jismoniy, axloqiy jihatlarini namuna holatda namoyon etishi muhim. O`qituvchi o`zining pedagogik faoliyatida to`g`riso`z bo`lishi, ishlarniadolat bilan olib borishi kerak. Bu xislat tarbiyachi bilan o`quvchi o`rtasida yaqinlikni oshiradi, chunkiadolat insonlar xulqini baholovchi muhim mezondir.Hazrat Alisher Navoiy aytganidek: “Loaqal bir harf o`rgatgan ustozning haqqini yuz ming ganj-u xazina bilan ham uzib bo`lmaydi”. Biz ulardan umrbod qarzdormiz.Alisher Navoiy yoshlarga chuqur bilim berish uchun muallimlar, mudarrislar va ustoz-murabbiylarning o`zlarini ham bilimli va tarbiyali bo`lishi zarurligini uqtiradi. U nodon mutassib johil domlalarni tanqid etadi va o`qituvchi ma'lumotli, o`qitish yo'llarini biladigan muallim bo`lishi zarur, deydi.

Xulosha:

Yuqorida bayon etilgan fikrlar mazmunidan anglanadiki, alloma o`z davrida ilm olish tamoyillarini to`g`ri ko`rsatib, shuningdek, ta'lim tizimi mohiyatini ham yoritib bera olgan. Alisher Navoiy tomonidan asoslangan ta'lim tizimi o`zida quyidagilarni

aks ettiradi: maktab yoki madrasada tahsil olish; olim, hunarmand yoki san'atkorlarga shogird tushish asosida ta'lim olish;` mustaqil ravishda ilm o'rghanish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. MAT. 20jildlik.— Toshkent:Fan, 2000.[1]
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. [2]
3. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. MAT. 20 jildlik. — Toshkent: Fan, 2001.[3]
4. Alisher Navoiy. Xamsat ul- mutahayyirin. Holoti Sayyid Hasan ArdasherHoloti Pahlavon Muhammad. Nazm ul-tavoxir. MAT. 10 jildlik. – Toshkent: Fan, 1999.[4]
5. Навоий замондошлари хотирасида. Тузувчи: Б.Ахмедов. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1985.[5]